



GRAMMAR USED IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE - TRANSLATION METHOD (GTM)

Akhbarova Madina Anvarjon kizi

3rd stage student of UzDJTU; madina.akbarova0824@gmail.com

Atayev Gulom Kabulovich

Scientific supervisor:

Senior teacher of Department No. 1 of English Language Teaching

Methodology of UzDJTU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12783763>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2024

Accepted: 29th April 2024

Online: 30th April 2024

KEYWORDS

Foreign language, mother tongue, target language, grammar, translation, method, reading, writing, dictionary.

ABSTRACT

There are always several methods of teaching and learning a foreign language, and these methods are changing and updating over time. The grammar-translation method is considered one of the most traditional and historical teaching methods and has been used by language teachers for many years. This article analyzes the grammar-translation method used in teaching foreign languages, its features, advantages, and goals.

CHET TILI O'QITISHDA FOYDALANILGAN GRAMMATIKA-TARJIMA METODI (GTM)

Akhbarova Madina Anvarjon kizi

O'zDJTU 3-bosqich talabasi; madina.akbarova0824@gmail.com

Atayev Gulom Kabulovich

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU Ingliz tili o'qitish metodikasi №1 kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12783763>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2024

Accepted: 29th April 2024

Online: 30th April 2024

KEYWORDS

Chet til, ona tili, maqsadli til, grammatika, tarjima, metod, o'qish, yozish, lug'at.

ABSTRACT

Chet tilini o'rgatish va o'rganishning bir necha usullari mavjud bo'lib, bu usullar vaqt o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib kelmoqda. Grammatika-tarjima usuli eng qadimiy o'qitish usulidan biri hisoblanib, til o'qituvchilari tomonidan ko'p yillardan beri foydalanilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarni o'qitishda qo'llaniladigan grammatika-tarjima usuli, uning xususiyatlari, afzalliklari va maqsadlari tahlil qilinadi.

Kirish

Biror kishiga yangi til o'rgatish yoki o'rganish oddiy ish emas. Ikkinchi til o'z ona tili emasligi sababli o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Chet tilini o'rgatishdan avval o'qituvchi o'quvchining bilimi, temperamenti va albatta, shaxsiyati bilan yaqindan tanishishi kerak. Ikkinchi chet tilini o'qitishning bir necha usullari mavjud bo'lib, bunda o'quvchining til bilish darajasi hisobga olinishi zarur. Bu o'qitish usullari



orasida Grammatika-tarjima usuli ham bor. GTM boshqa usullarga qaraganda kamroq ma'lum bo'lsa-da, xorijiy tillarni o'rgatishning eski, ammo samarali usuli hisoblanadi, ayniqsa ikkinchi tilni endi o'rgana boshlaganlar uchun.

Grammatika-tarjima usuli - bu chet tilini o'rganish uchun til o'rgatish usuli. Bu metod o'rganilayotgan tilning grammatik qoidalarini o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Grammatika-tarjima usuli butunlay yozma so'z va matnlarga asoslangan bo'lib, dastlab bu uslub lotin va grek tillarini o'rganishda foydalanilgan. Asosiy maqsadi – o'qish va yozish qobiliyatlarini yaxshilashdir. Bu o'qitish uslubi so'zlashish va tinglab tushunish mahoratini kam miqdorda qamrab oladi. O'rganuvchilar o'rganilayotgan tilning grammatik qoidalarini, bir tildan ikkinchi tilga ya'ni o'z ona tillariga yoki buning aksi o'z tillaridan boshqa tilga to'g'ridanto'g'ri tarjima qilishni o'rganishlari grammatika-tarjima usulining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. XVI asr boshlarida lotin tili hukumat, ilmiy doiralar

va biznesdagi nufuzi tufayli eng ko'p o'rganilgan chet tili bo'lgan. Bu uslub 1840-1940-yillarda ko'p qo'llana boshladi. Biroq, lotin tilidan foydalanish keyinchalik kamaydi va astasekin ingliz, fransuz va italyan tillariga almashtirildi. Lotin tili tanazzulga uchragach, uni maktablarda o'rganishdan maqsad o'zgardi. Ilgari talabalar lotin tilini muloqot qilish uchun o'rgangan bo'lsalar, endilikda faqat akademik fan sifatida o'rganila boshlandi.¹

Grammatika-tarjima metodining asosiy ikki maqsadi

1) O'quvchilarning o'qish qobiliyatini o'rganilayotgan tildagi adabiyotlarni o'qiy oladigan darajaga yetkazish.

2) O'quvchilarning umumiy intellektual rivojlanishini ta'minlash.²

Chet tilidan foydalanuvchilar chet tillari adabiyotiga qiziqqan narsalarni qayd etishni xohlashadi. Shuning uchun, bu usul o'qish va yozishga qaratilgan va faqat o'qish va yozishni o'rganishni ko'proq osonlashtiradigan usullarni o'z ichiga qamrab oladi.

Grammatika-tarjima qilish usulida o'qituvchi sinfdagi yagona vakildir, chunki u hamma narsani nazorat qiladi va belgilaydi, masalan, dars mazmuni, vazifalar va boshqalar. Bundan tashqari, o'qituvchi talabalar xato qilganida ularning javobini to'g'iraydi va o'z fikrlarini aytib o'tadi.

Talabalar bilimni passiv qabul qiluvchilar hisoblanadi, chunki ular o'qituvchining ko'rsatmalariga to'g'ridan-to'g'ri ergashadilar. Darsda talabalar emas o'qituvchi markazda bo'ladi.

Grammatika-tarjima qilish usulining xususiyatlari

Har bir uslubning o'ziga xos belgilari bo'lganligi sababli, ular tilni o'rgatish uchun o'qituvchiga ma'lum bo'lishi kerak. Shuningdek, Grammatika-tarjima usulining ham o'ziga xos xususiyatlari bor.³

1) GTMning asosiy yo'nalishi o'qish va yozishga qaratilgan.

1 <https://www.myenglishpages.com/blog/grammar-translation-method/>

2 Abdulxayeva D., TEACHING IN GRAMMAR TRANSLATION METHOD (GTM)., ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА

И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, ЧАСТЬ-4, МАРТ-2023 ГОД: 2181-3187

3 <https://simplyeducate.me/2015/01/10/how-to-use-the-grammar-translation-method/>



2) Foydalanilgan o'qish matnidani lug'at so'zlari tanlanadi. O'qituvchilar lug'at so'zlarini yodlash, ikki tilli so'zlar ro'yxati va lug'at orqali o'rgatishadi.

3) O'qitish va til amaliyotining asosiy birligi mantidir. Darsning aksariyati maqsadli tildan boshqa bir tilga matnlarni tarjima qilishdir.

4) Grammatikada deduktiv usul qo'llaniladi. Qoidalar taqdim etiladi va o'rganiladi. Keyin o'rganuvchilar tarjima mashqlari orqali mashq qiladilar.

5) O'rganilayotgan til va o'quvchilarning ona tilini solishtirish uchun o'rganilayotgan tildagi yangi grammatik qoida yoki lug'at o'quvchilarning ona tilida tushuntiriladi.

6) Matnni tarjima qilganda aniqlik va ketma-ketlik bilan tarjima qilish talab etiladi.⁴

GTM maqsadlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, sinfda quyidagi mashqlarni amalga oshirish mumkin:

1. Talabalar kuniga kamida 5 ta so'zni ingliz tilida yodlashlarini va ularning sinonimlarini topishlari.

2. Talabalar o'z ona tillarida do'stlarining suhbatlarini yozib olib, so'ng uni ingliz tiliga tarjima qilishlari.

3. Talabalar qoidani eslab qolishi va uni o'z gaplarida qo'llashi.

4. O'quvchilar o'zlariga berilgan matndan 10 ta fe'l yozishi, so'ngra sinonim va antonimlarni berishlari kerak bo'ladi.

5. Talabalar matndan nutqning ma'lum qismini (masalan, fe'l, ot, sifat va boshqalar) aniqlashi hamda ularni ushbu so'zlarni tarjima qilishlari va sinonim va antonimlarni topishlari kerak bo'ladi.

6. Talabalar o'zlarining sevimli iqtiboslari, hazillari, idiomalari yoki she'rlarini ona tilidan ingliz tiliga yoki aksincha tarjima qilishi.

7. Talabalar matnlarni tarjima qilish uchun "Google tarjimon" yoki boshqa tarjima dasturidan foydalanib matnni tarjima qilishlari va tarjima qilingan matnning ma'no jihatdan mosligini tekshirib uni birga to'g'irlash.

Boshqa usullar kabi, grammatik-tarjima usulining ham ba'zi afzalliklari bor, ular:

1) Talabalar maqsadli tilda maksimal aniqlikka erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2) O'rganuvchilar aqliy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradigan klassik adabiyotlarni o'qishadi.

3) Adabiyot ham o'quvchilarning ko'plab imkoniyatlarini boyitishga yordam beradi.

4) Bu uslub talabalarga maqsadli tilni o'qish va yozish malakasini oshirishga yordam beradi.

5) O'rta va past darajadagi talabalar uchun juda samarali.

6) Dars davomida juda kam o'quv materiallari yoki yordamchi vositalar kerak bo'ladi.

7) Tushuntirish jarayonida ona tilidan foydalanish tufayli o'quvchilar o'zlarini qulay va ishonchli his qiladilar.⁵

4 Babayev J., CHARACTERISTIC FEATURES OF GRAMMAR-TRANSLATION METHOD., IV INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE MADRID. SPAIN. 09-10.05.2023.-p.49-50.

5 <https://englishfinders.com/grammar-translation-method/>



Grammatika-tarjima usulining afzalliklari bilan bir qatorda quyida sanab o'tiladigan kamchiliklari ham mavjud:

- 1) Darslar asosan o'qituvchiga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar o'qituvchi bilan muloqot qilish uchun kamroq imkoniyatga ega bo'lishadi.
- 2) Nutq va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kamroq imkoniyatga ega bo'lishadi.
- 3) Sinfda o'quvchilar o'zlari turli xil gaplar yaratib ularni muhokama qila olmaydi.
- 4) Talabalar ko'p miqdorda grammatik atamalarni o'rganishlari kerak bo'ladi, ba'zilari yodda saqlash uchun ortiqcha va kerak emas bo'lishi mumkin.
- 5) Tarjimalar to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilganligi sababli ba'zi tarjima matnlar qoniqarsiz deb hisoblanadi.⁶

Ushbu kamchiliklarning barchasiga qaramay, grammatika-tarjima usuli hali ham butun dunyoda til o'rgatishda eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Chunki o'quvchilar

maqsadli tilda o'z ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ba'zi o'qituvchilar lug'at so'zlarni yoki grammatika qoidalarini tushuntirishda ona tilidan foydalanish fikriga qo'shilmasliklari mumkin, chunki ular o'quvchilarning faqat maqsadli tilni samarali o'zlashtirishlarini xohlashadi. Biroq, eng yaxshi usul yoki strategiya qaysi ekanligi haqida qat'iy qoida yo'q. O'qituvchi turli usullarni qo'llab, o'quvchilariga qaysi o'qitish uslubi mos kelishini aniqlasa o'qish samaradorligini oshirgan hisoblanadi.

Grammatika-tarjima qilish usuli hali ham dolzarbmi?

Bugungi tez sur'atda o'sayotgan dunyoda til o'rganishda ko'proq kommunikativ kompetentsiyaga va real hayotda qo'llanilishiga e'tibor qaratilgan. Grammatika-tarjima qilish usuli har doim ham ushbu maqsadlarga mos kelmasligi mumkin, chunki u ravonlikdan ko'ra aniqlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Biroq, ba'zi o'qituvchilarning ta'kidlashicha, hozirgacha ushbu metodning elementlari kommunikativ vazifaga asoslangan o'qitish uslublari bilan birlashganda ham samarali ishlatib kelinmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchilar tomonidan turli usullar qo'llaniladi, ammo asosiylari orasida Grammatik-tarjima qilish usuli 16asrda paydo bo'lib, ma'lum bir chegaralari bo'lishiga qaramay, hali ham ingliz tili darslarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Og'zaki muloqot ko'nikmalarini yoki real hayotda tildan foydalanishni birinchi o'ringa qo'ymasa ham, u o'quvchilarning grammatika qoidalarini va lug'at haqidagi tushunchalarini rivojlantirishda foydali usul hisoblanadi.

Grammatika-tarjima qilish usuli o'qituvchilar tomonidan chet tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda kerak bo'lgan samarali o'qitish usuli hisoblanadi. Grammatika-tarjima usuli talabalarga matnni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi.⁷ Umuman olganda, Grammatika-tarjima qilish usuli til ta'limining tarixida muhim rol o'ynadi,

6 <https://educationsummary.com/lesson/advantages-and-disadvantages-of-grammar-translation-method-of-teaching-english/>

7 Ishraq M., THE EFFECT OF USING GRAMMAR-TRANSLATION METHOD ON ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE., International Journal of Asian Social Science, 2013, 3(12): 2469-2476



pedagogik amaliyotni shakllantirdi va til o'rgatish metodologiyasining keyingi ishlanmalariga asos soldi.

References:

1. Abdulxayeva D., TEACHING IN GRAMMAR TRANSLATION METHOD
2. (GTM)., ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, ЧАСТЬ-4, МАРТ-2023 ГОД: 2181-3187
3. Babayev J., CHARACTERISTIC FEATURES OF GRAMMARTRANSLATION METHOD., IV INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE MADRID. SPAIN. 09-10.05.2023.- p.49-50.
4. Ishraq M., THE EFFECT OF USING GRAMMAR-TRANSLATION METHOD ON ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE., International
5. Journal of Asian Social Science, 2013, 3(12): 2469-2476
6. <https://simplyeducate.me/2015/01/10/how-to-use-the-grammartranslationmethod/>
7. <https://www.myenglishpages.com/blog/grammar-translation-method/>
8. <https://englishfinders.com/grammar-translation-method/>
9. <https://educationsummary.com/lesson/advantages-and-disadvantagesofgrammar-translation-method-of-teaching-english/>